

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

“HURLIQO VA HAMRO” DOSTONINING MA’NAVIY MA’RIFIY XUSUSIYATLARI

Nafosat Ozodova Sherxon qizi

Ajiniyoz nomidagi NukusDPI, Turkiy tillar fakulteti O‘zbek tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi 3-“V” guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Hurliqo va Hamro dostonining ma’naviy ma’rifiy xususiyatlari va tarbiyaviy ahamiyati haqida mushohada yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Hurliqo va Hamro, mehr, yaxshilik, muhabbat, yovuzlik, sadoqat, ma’naviyat, tarbiya.

O‘zbek folklorining eng yirik janrlaridan biri dostonchilikdir. Xalq og‘zaki ijodi namunalari ya’ni dostonlar insonlarning ma’naviy va jismoniy jihatdan rivojlanishida muhim ro‘l o‘ynaydi. Folklor namunalari og‘zaki tarzda baxshilar tomonidan kuylanib, hozirgi kungacha saqlanib kelmoqda. Mana shunday dostonlardan biri "Oshiqnoma" dostoni turkumiga kiruvchi "Hurliqo va Hamro" dostonidir. Doston ko‘pchilik Xorazm baxshilari tomonidan ijro etilib, hozirgi kungacha ham saqlanib kelmoqda. Ana shunday dostonlardan biri "Hurliqo va Hamro" dostonidir. Ushbu doston turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan ishqiy-romantik doston hisoblanadi. Dostonning shakllanish tarixini ayrim tadqiqotchilar XII - XVII asrlarga taalluqli deb hisoblaydilar. Dostonning o‘zbek, turkman, qozoq, qoraqalpoq versiyalari mavjud. Dostonning bosh qahramonlaridan biri Hamro asarda mard, rahmdil, mehribon inson sifatida tasvirlanganligi bilan boshqa qahramonlardan ajralib turadi. Ayniqsa aka-ukalari bilan birgalikda shahardagi ba’zi aholining, nochor xalqni yashash tarzini ko‘rib ularga rahmi kelgani hamda u qo‘lidan kelganicha ularga yordam berishi rahmdillikning ko‘rinishidir. Hamroning birgina qilgan yaxshiligi, rahmdilligi sabab, nafaqat o‘zining hayotini balki akalari, singlisining ham hayotini saqlab qolishga sababchi bo‘ldi. Inson hech qachon yaxshilik qilishdan qochmasligi kerak. Faqat o‘zini o‘ylagan inson biror bir natijaga erisholmaydi. Asarda ota va farzand o‘rtasidagi munosabatlar, bir biriga bo‘lgan hurmat, mehribonchiliklar ta’sirli tarzda tasvirlangan. Otaning farzandlariga pand-nasihatlar she’riy yo‘sinda tasvirlangan. Dostondagi ayrim voqealar ertaklardagi voqealarga o‘xshab ketadi. Masalan, Bulbuligo‘yoni topish maqsadida aka-ukalarni safarga ketishi hamda ular safarda uchchalasi uch tomonga ketishi "Borsa kelgay", "Borsa aslo kelmagay", "Borsa yo kelgay yo kelmagay" va ulardagi turli xil voqealar o‘xshab ketadi. Lekin dostonning farqi asardagi personajlarning ko‘pligidir. Ma’no-mazmun jihatdan ikkalasi ham tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Hurliqo va Hamroning bir biriga do‘st deb murojaat qilishlari, badiiy tasvir vositalari orqali ajoyib tarzda

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

tasvirlangan. Asarda "Hurliqo" obrazi alifdek qomatli, oy yuzli pari deya ta’riflangan. Asardagi "Hurizafaron" obrazida yovuzlik, axloqsizlik fazilatlari yaqqol namoyon bo’ladi. Chunki u "Hurliqo va Hamro" ni ko’rolmaydi, doim ularga yomonlik qilib yuradi. Hatto qozi bilan til biriktirib, o’z singlisini ham ayamaydi. Ana shunday yovuzlik va yaxshilik har doim asarlarda o’z aksini topgan. Lekin har doim yaxshilik ustun kelgan. Hamroning o’z akalariga bo’lgan mehribonchiligi ajoyib tarzda tasvirlangan. Akalari og’ir ahvoldaligini ko’rib ularga kiyim- kechak, ot olib beradi. Akalari esa "Bulbuligo’yoni u topdi, bizni ahvolimizni aytib beradi" - deb o’ylab, Hamroning ko’zini o’yib, chohga tashlab ketishadi. Inson o’z jigariga ham shunday yomonlikni ravo ko’radimi? Barchasi boylik sabab. Inson pul uchun hech qachon jigaridan voz kechmasligi kerak. Asar oxirida Hurliqo sabab Hamro yana avvalgidek ko’zi ko’ra boshlaydi. Hamroning qanday oliyjanob inson ekanligini, o’z akalarini kechirganligidan ham bilish mumkin. Albatta, yomonlik jazosiz, yaxshilik mukofotsiz qolmaydi. Asarda Hurliqo obraziga to’xtaladigan bo’lsak, u mard, vafoli, sadoqatli va mehribon inson sifatida tasvirlangan. U Hamroni og’ir vaziyatga tushgan paytida ham tashlab ketmadi. Ya’ni u o’z yoriga bo’lgan sadoqatini ko’rsatdi. Hamroni ko’zi ko’rmay qolganida unga yordam berishga harakat qildi. Uni ko’zini davolash uchun o’zi kurashdi. Va albatta o’z maqsadiga erishdi. Doston insonlarni ya’ni kitobxonni doimo yaxshilik qilishga, qanday vaziyatda bo’lishidan qat’iy nazar mehr ko’rsatish kerakligiga undaydi. Asarda ota va farzand munosabatlari, aka - uka munosabati tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Dunyodagi barcha otalar farzandi uchun hamma narsaga tayyor bo’lishadi. Asar qahramoni "Xisrav" podshoh ham ana shunday otalardan biridir. Aka - ukalar o’rtasida esa biroz ziddiyatlar kelib chiqadi. Hamroning akalari esa otasiga yaxshi ko’rinish va boylik orttirish maqsadida o’z ukasini ko’zini o’yib, chohga tashlab ketishadi. Hech bir aka- uka, jigarlar bir biriga bunday yomonlikni ravo ko’rishi to’g’ri emas. Hamroning qanchalik mard inson ekanligini, jigarlariga hech narsa qilmay, ularni kechirganligidan bilish mumkin. U ham bir oliyjanoblikdir. Dostonda ishq-muhabbat, vafo, sadoqat, oliyjanoblik, ezgulik, mehr-oqibat, yaxshilik va ma’naviy-axloqiy fazilatlar o’z aksini topgan. Kitobxonni o’ziga jalb qiladigan tomoni Xorazm dostonlaridagi voqea-hodisalar tafsilotlari nasrda bayon etiladi hamda his-tuyg’ular, kechinmalari lirik tarzda she’riy parchada namoyon bo’ladi. Badiiy ijod namunalari insonlarni doimo yaxshilikka, ma’naviy jihatdan yuksalishga, bilim olishga, yaxshi fazilatlarni o’zida mujassam etishga, insoniylik xislatlari namoyon etishga undaydi. Ana shunday ijod mahsullaridan biri dostonlar ham ana shunday. Ushbu doston ham insonlarni ma’naviy jihatdan yuksalishga, mehr-oqibatli, oliyjanob, mehnatkash, doim

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

insonlarga yaxshilik qiladigan, sadoqatli inson bo‘lishlariga turtki bo‘ladi. Ayniqsa hozirgi kunda o‘tib borayotgan yosh avlodni to‘g‘ri yo‘lga boshlashda, ularni har tomonlama yetuk inson bo‘lib yetishishlarida, ularni dunyoqarashini kengaytirishda albatta ushbu doston singari asarlarning o‘rni beqiyosdir. Badiiy ijod mahsullaridan insoniyat o‘ziga ma’naviy ozuqa oladi, ruhiy holati yaxshilandi, atrofidagi insonlarga bo‘lgan munosabati yaxshi tomonga o‘zgaradi. Doston qahramonlarining xarakter xususiyatlari, axloqiy fazilatlaridan kelib chiqib, yosh avlod o‘ziga munosib xulosa chiqarib oladi. Yoshlarning tarbiyasida, ma’naviy va jismoniy tomonlama rivojlanishida dostonning yaxshi natija berishi shubhasizdir. Chunki dostonda turli xildagi fazilatli insonlarning hayoti, yaxshilik va yomonlikning oqibatlari, mehr va sadoqat kabi xislatlar o‘z aksini topgan.

Xulosa qilib aytganda, Badiiy ijod namunalari ayniqsa dostonlar insonlarni yetuk shaxs, ma’naviy va jismoniy jihatdan mukammal bo‘lib yetishishlarida katta ahamiyatga egadir.

Foydalangan adabiyotlar:

1. S.R.Ro‘zimboyev, G.O.Eshchanova, S.S.Ro‘zimboyev, A.Ahmedov "Oshiqnoma" 1-kitob "Xorazm" nashriyoti 2006 -yil.
2. Ziyoz.uz.kutubxonasi.
3. Allambergenov, H. K., & Shamsiyev, D. I. (2024). Image Of Jabroil Alayhissalam In Navoyi's Me'rojnomas. SPAST Reports, 1(1).
4. Allambergenov, H. (2022). Shamsiyev D. Navoiy me'rojnolarida Muhammad payg'ambar obrazi ("Sab' ai sayyor", "Saddi Iskandariy" va "Lison ut-tayr" dostonlari misolida). Ilim ham jamiet" jurnali, 95-98.
5. Allambergenov, H. (2024). „MEZON UZ-ZAMON “–DAVR VOQELIGINING KO ‘ZGUSI SIFATIDA. INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY, 2(5), 236-245.
6. Kamalovich, A. H. (2024). IBRAT SHE'RIYATIDA MA'RIFATPARVARLIK G ‘OYALARI. SCIENCE TIME JOURNAL, 2(2), 23-32.